YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-yil 5-son

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

ISSN: 2181-1938

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
E. Mustafayev, Y. Yarmolik, M. Sharifova, X. Yuldasheva, F. Usmonova, K. Abduvaliyeva

Musahhih:
M. Tursunov

Texnik muharrir:
U. Sapayev

Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Vebsayt: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma
№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2026-yil 21-oktabrda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 11,6.
Adadi: 100. Buyurtma: № 110.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktori, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti sho'basi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

J. Blum – Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (AQSH)

M. Vishovatiy – Polshaning Gdansk universiteti professori (Polsha)

M. Hayat – Muhammadiyah Malang universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

A. Xashimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

A. Yakubov – Origin Uzbekistan ijrochi direktori, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, yuridik fanlar doktori, professor

E. Egamberdiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti Tadqiqot markazi rahbari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Sh. Ismoilov – Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

G. Uzakova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

G. Yo'ldasheva – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

A. Yo'ldoshev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti Tadqiqot markazi yetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori, dotsent

R. Altiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, professor v.b.

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho'basi professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

S. Oripov – Toshkent davlat agrar universiteti Huquqshunoslik kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

F. Hamdamova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori

D. So'fiyeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho'basi katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Э. Мустафаев, Е. Ярмолик,
М. Шарифова, Х. Юлдашева,
Ф. Усмонова, К. Абдувалиева

Корректор:
М. Турсунов

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387.

Свидетельство
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
21.10.2026.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 11,6. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 110.

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, 37.

© Ташкентский государственный юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

З. Эсанова – проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – директор Высшей школы правовых исследований Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, доцент

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – заведующий сектором узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по филологическим наукам, доцент

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – профессор юридической школы Бостонского колледжа (Бостон, США), доктор юридических наук

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

М. Хаят – преподаватель Университета Мухаммадия Маланг (Индонезия)

А. Хашимхонов – первый проректор по делам молодёжи и духовно-просветительской работе Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

А. Якубов – исполнительный директор Origin Uzbekistan, доктор юридических наук, доцент

М. Ахмедшаева – профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Х. Хайитов – депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Э. Эгамбердиев – руководитель Исследовательского центра факультета междисциплинарного изучения права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, доцент

Ш. Исмоилов – заведующий сектором трудового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Г. Узакова – заведующая сектором экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Г. Юлдашева – профессор сектора международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Юлдошев – ведущий научный сотрудник Исследовательского центра факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Р. Алтиев – декан факультета уголовного правосудия Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, и. о. профессора

М. Курбанов – и. о. профессора сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

С. Орипов – доцент кафедры права Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии по юридическим наукам

Ф. Хамдамова – и. о. доцента кафедры международного и публичного права Университета мировой экономики и дипломатии, доктор юридических наук

Д. Суфиева – старший преподаватель сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
E. Mustafaev, E. Yarmolik, M. Sharifova, Kh. Yuldasheva, F. Usmonova, K. Abduvalieva

Proofreader:
M. Tursunov

Technical editor:
U. Sapaev

Designer:
D. Rajapov

Editorial office address:
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 21.10.2026.
Paper size: A4. Cond.p.f: 11,6.
Units: 100. Order: № 110.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Director of the Graduate School of Legal Research of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

M. Hayat – Lecturer of the University of Muhammadiyah Malang (Indonesia)

A. Khashimhonov – First Deputy Rector for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

A. Yakubov – Executive Director of Origin Uzbekistan, Doctor of Law, Associate Professor

M. Akhmedshaeva – Professor of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Kh. Khayitov – Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

E. Egamberdiev – Head of the Research Center of the Faculty of Interdisciplinary Studies of Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

Sh. Ismoilov – Head of the Department of Labor Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

G. Uzakova – Head of the Department of Environmental Law of the Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

G. Yuldasheva – Professor of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Yuldoshev – Leading Research Fellow of the Research Center of the Faculty of Public Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

R. Altiev – Dean of the Faculty of Criminal Justice of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Acting Professor

M. Kurbanov – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

S. Oripov – Associate Professor of the Department of Law of Tashkent State Agrarian University, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

F. Hamdamova – Acting Associate Professor of the Department of International Law and Public Law of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law

D. Sufieva – Senior Lecturer of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

11 **RAXMANOV AKMAL ERGASHEVICH**
Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashda davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy majburiyatlari: mazmuni, turlari va amalga oshirish mezonlari
22 **ABDURAYIMOV MUHAMMAD SUVANQUL O'G'LI**
Advokatlik faoliyatini raqamlashtirish va advokatlik sirini saqlash kafolatlari
30 **ALLAMBAYEV JAVLONBEK RUSTAMOVICH**
Bojxona organlarida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tizimini takomillashtirish
38 **ASLONOVA NAFISA OLIMOVNA**
Tadbirkorlik subyektlarining halolligi prezumpsiyasi iqtisodiy huquqlarni sudda himoya qilishning protsessual kafolati sifatida

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

52 **TURDIALIYEV MUHAMMAD ALI PO'LATJON O'G'LI**
Sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari
63 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA, KAYUMOVA ASALYA SULTONMURODOVNA**
Venchur investitsiyalar hamda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar (private equity): huquqiy tartibot va shartnomaviy konstruksiyalardagi farqlar
74 **ABDUSAMATOV NURULLO QOBILJON O'G'LI**
Raqamli mulk fuqarolik huquqi obyekti sifatida

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

82 **SOBITOVA UMIDAXON MUROD QIZI**
Sog'liqni saqlash sohasida korrupsiyaning oldini olishda prokuratura organlarining o'rni

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

92 **UTAYEV XUSNIDDIN XURRAMOVICH**
Raqamli muhitda mulkiy tajovuzlarni farqlashning jinoyat huquqiga oid mezonlari
101 **ABBOSOV MIRSULTON MIRSHAROF O'G'LI**
Sun'iy intellekt ishtirokida sodir etiladigan ayrim qilmishlarning obyektiv belgilari namoyon bo'lishi
110 **NEMATILLOYEV BAXROM VAXOBOVICH**
O'zbekiston jinoyat qonunchiligida "kiberjinoyat" tushunchasini takomillashtirishning nazariy-huquqiy asoslari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

116 **XALILOV AKRAM UTAMURODOVICH**
Sud ekspertizasi institutining huquq tizimidagi o‘rni va sohaviy qonunchilikdagi kolliziyalarni bartaraf etish masalalari
123 **NOSIROV AMIRXON BAHODIR O‘G‘LI**
Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatida isbotlash predmetining kriminalistik jihatlari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

130 **YUNUSOV XAYDARALI MURATOVICH**
Xalqaro organlarga murojaat qilish huquqini ta’minlashning mintaqaviy mexanizmlari va tartib-taomillari
143 **MUSAYEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**
Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish: xalqaro-huquqiy hamkorlikni rivojlantirish tendensiyalari
154 **UMAROV RUSTAM ZULFUKAROVICH**
“Markaziy Osiyo – Xitoy” formati xalqaro-huquqiy tartibga solinishi: evolyutsiyasi, shartnomaviy-huquqiy bazasi va hamkorlikning institutsional mexanizmlari
166 **SAYFULLAYEVA MAHBUBA AZIM QIZI**
Xalqaro moliya markazlarida ingliz huquqini joriy etish va qo‘llash modellari: qiyosiy-huquqiy tahlil
174 **XUDAYBERGANOVA NIGINA TO‘LQIN QIZI**
Maxsus missiyalar institutining tarixiy rivojlanishi

HUQUQNI SOHALARARO TADQIQ ETISH

185 **XADJAYEVA SAODAT ANVAROVNA**
Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlashda zamonaviy huquqiy va institutsional mexanizmlar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

11 **РАХМАНОВ АКМАЛ ЭРГАШЕВИЧ**
Конституционно-правовые обязанности государства по обеспечению основных прав и свобод человека: содержание, виды и критерии реализации

22 **АБДУРАЙИМОВ МУХАММАД СУВАНКУЛ УГЛИ**
Цифровизация адвокатской деятельности и гарантии сохранения адвокатской тайны

30 **АЛЛАМБАЕВ ЖАВЛОНБЕК РУСТАМОВИЧ**
Совершенствование системы производства по делам об административных правонарушениях в таможенных органах

38 **АСЛОНОВА НАФИСА ОЛИМОВНА**
Презумпция добросовестности субъектов предпринимательства как процессуальная гарантия судебной защиты экономических прав

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

52 **ТУРДИАЛИЕВ МУХАММАД АЛИ ПУЛАТЖОН УГЛИ**
Перспективы совершенствования таможенного законодательства Республики Узбекистан в связи с внедрением технологий искусственного интеллекта

63 **КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА, КАЮМОВА АСАЛЯ СУЛТОНМУРОДОВНА**
Венчурные и прямые инвестиции (private equity): сравнительный анализ правового регулирования и договорных конструкций

74 **АБДУСАМАТОВ НУРУЛЛО КОБИЛЖОН УГЛИ**
Цифровое имущество как объект гражданских прав

12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

82 **СОБИТОВА УМИДАХОН МУРОД КИЗИ**
Роль прокуратуры в предупреждении коррупции в сфере здравоохранения

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

92 **УТАЕВ ХУСНИДДИН ХУРРАМОВИЧ**
Уголовно-правовые критерии разграничения имущественных посягательств в цифровой среде

101 **АББОСОВ МИРСУЛТОН МИРШАРОФ УГЛИ**
Проявление объективных признаков отдельных деяний, совершаемых с участием искусственного интеллекта

110 **НЕМАТИЛЛОЕВ БАХРОМ ВАХОБОВИЧ**
Теоретико-правовые основы совершенствования понятия «киберпреступление» в уголовном законодательстве Узбекистана

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

116 **ХАЛИЛОВ АКРАМ УТАМУРОДОВИЧ**
Место института судебной экспертизы в системе права и вопросы устранения коллизий в отраслевом законодательстве
123 **НОСИРОВ АМИРХОН БАХОДИР УГЛИ**
Криминалистические аспекты предмета доказывания по делам о мошенничестве, совершённом с использованием информационных технологий

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

130 **ЮНУСОВ ХАЙДАРАЛИ МУРАТОВИЧ**
Региональные механизмы и процедуры обеспечения права на обращение в международные органы
143 **МУСАЕВ ДЖАМАЛИДДИН КАМАЛОВИЧ**
Борьба с незаконным оборотом наркотических средств: тенденции развития международно-правового сотрудничества
154 **УМАРОВ РУСТАМ ЗУЛЬФУКАРОВИЧ**
Международно-правовое регулирование формата «Центральная Азия – Китай»: эволюция, договорно-правовая база и институциональные механизмы сотрудничества
166 **САЙФУЛЛАЕВА МАХБУБА АЗИМ КИЗИ**
Модели внедрения и применения английского права в международных финансовых центрах: сравнительно-правовой анализ
174 **ХУДАЙБЕРГАНОВА НИГИНА ТУЛКИН КИЗИ**
Историческое развитие института специальных миссий

МЕЖОТРАСЛЕВОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПРАВА

185 **ХАДЖАЕВА САОДАТ АНВАРОВНА**
Современные правовые и институциональные механизмы подготовки научных кадров нового поколения

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

11 **RAKHMANOV AKMAL ERGASHEVICH**
Constitutional-legal obligations of the state in ensuring fundamental human rights and freedoms: content, types, and criteria for implementation
22 **ABDURAYIMOV MUKHAMMAD SUVANKUL UGLI**
Digitalization of advocacy activities and guarantees for maintaining advocacy confidentiality
30 **ALLAMBAEV JAVLONBEK RUSTAMOVICH**
Improving the system of administrative offense proceedings in customs authorities
38 **ASLONOVA NAFISA OLIMOVNA**
The presumption of good faith of business entities as a procedural guarantee for the judicial protection of economic rights

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

52 **TURDIALIEV MUHAMMAD ALI PULATJON UGLI**
Prospects for improving the customs legislation of the Republic of Uzbekistan in connection with the introduction of artificial intelligence technologies
63 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA, KAYUMOVA ASALYA SULTONMURODOVNA**
Venture capital investments vs private equity: differences in legal regulation and contractual structures
74 **ABDUSAMATOV NURULLO KOBILJON UGLI**
Digital property as an object of civil rights

12.00.07 – JUDICIAL BRANCH. PROSECUTOR'S CONTROL. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT. ADVOCACY

82 **SOBITOVA UMIDAKHON MUROD KIZI**
The role of the prosecutor's office in preventing corruption in the healthcare sector

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

92 **UTAEV KHUSNIDDIN KHURRAMOVICH**
Criminal law criteria for differentiating property offences in the digital environment
101 **ABBOSOV MIRSULTON MIRSHAROF UGLI**
Manifestation of the objective elements of certain acts committed with the participation of artificial intelligence
110 **NEMATILLOEV BAKHROM VAXOBOVICH**
Theoretical and legal foundations for refining the concept of "cybercrime" in the criminal legislation of Uzbekistan

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

116 **KHALILOV AKRAM UTAMURODOVICH**
The place of the institute of forensic examination in the legal system and issues of eliminating collisions in sectoral legislation
123 **NOSIROV AMIRKHON BAHODIR UGLI**
Forensic aspects of the subject of proof in fraud crimes committed using information technologies

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

130 **YUNUSOV KHAYDARALI MURATOVICH**
Regional mechanisms and procedures for ensuring the right to apply to international bodies
143 **MUSAEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**
Combating illicit drug trafficking: trends in the development of international legal cooperation
154 **UMAROV RUSTAM ZULFUKAROVICH**
International legal regulation of the “Central Asia–China” format: evolution, treaty framework, and institutional mechanisms of cooperation
166 **SAYFULLAEVA MAHBUBA AZIM KIZI**
Models for the introduction and application of english law in international financial centres: a comparative legal analysis
174 **KHUDAYBERGANOVA NIGINA TULQIN KIZI**
Historical development of the institution of special missions

INTERDISCIPLINARY STUDY OF LAW

185 **KHADJAEVA SAODAT ANVAROVNA**
Modern legal and institutional mechanisms for training a new generation of researchers

Kelib tushgan / Получено / Received: 17.08.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 08.10.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 21.10.2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65007
UDC: 347.211:004(045)(575.1)

RAQAMLI MULK FUQAROLIK HUQUQI OBYEKTI SIFATIDA

Abdusamatov Nurullo Qobiljon o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual
huquqi sho‘basi o‘qituvchisi
ORCID: https://orcid.org/0009-0008-1439-2929
e-mail: nurullo2201abd@gmail.com

Annotatsiya. *Tadqiqotda raqamli mulkning fuqarolik huquqlari obyekti sifatidagi huquqiy tabiati, uning fuqarolik muomalasidagi o‘rni hamda huquqiy tartibga solish muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi raqamli mulk institutining nazariy asoslarini ochib berish, xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot qiyosiy-huquqiy, tizimli, formal-yuridik va tarixiy-huquqiy metodlar asosida amalga oshirilgan. Natijada raqamli mulkning fuqarolik huquqi obyekti sifatidagi mezonlari aniqlanib, uni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish yo‘nalishlari asoslandi. Tadqiqot natijalari qonun ijodkorligi, sud amaliyoti va ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik huquqi, fuqarolik huquqlari obyekti, raqamli mulk, raqamli aktiv, blokcheyn, kriptovalyuta, token, NFT*

ЦИФРОВОЕ ИМУЩЕСТВО КАК ОБЪЕКТ ГРАЖДАНСКИХ ПРАВ

Абдусаматов Нурулло Кобилжон угли,
преподаватель сектора гражданского процессуального
и экономического процессуального права
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. *В исследовании проанализированы правовая природа цифрового имущества как объекта гражданских прав, его место в гражданском обороте и проблемы правового регулирования. Цель исследования заключается в раскрытии теоретических основ института цифрового имущества, сравнительном анализе зарубежного опыта и разработке предложений по совершенствованию национального законодательства. Исследование проведено с использованием сравнительно-правового, системного, формально-юридического и историко-правового методов. В результате определены критерии, характеризующие цифровое имущество как объект гражданских прав, и обоснованы направления совершенствования его правового регулирования. Результаты исследования могут быть использованы в законотворческой деятельности, судебной практике и научных исследованиях.*

Ключевые слова: *гражданское право, объект гражданских прав, цифровое имущество, цифровой актив, блокчейн, криптовалюта, токен, невзаимозаменяемый токен (NFT)*

DIGITAL PROPERTY AS AN OBJECT OF CIVIL RIGHTS

Abdusamatov Nurullo Kobiljon ugli,
Lecturer of the Department of Civil Procedure
and Economic Procedure Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. *The study analyzes the legal nature of digital property as an object of civil rights, its role in civil circulation, and problems of legal regulation. The aim of the study is to reveal the theoretical foundations of the institution of digital property, conduct a comparative analysis of foreign experience, and develop proposals for improving national legislation. The research was carried out on the basis of comparative-legal, systematic, formal-legal and historical-legal methods. As a result, the criteria of digital property as an object of civil law were determined, and the directions for improving its legal regulation were substantiated. The results of the research can be used in lawmaking, judicial practice and scientific research.*

Keywords: *civil law, objects of civil rights, digital property, digital asset, blockchain, cryptocurrency, token, NFT*

Kirish

XXI asrning birinchi choragida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarini tubdan o‘zgartirdi. Iqtisodiy boyliklarning tobora katta qismi moddiy shakldan raqamli shaklga o‘tmoqda: bugungi kunda kriptovalyutalar, tokenlar, almashtirib bo‘lmaydigan tokenlar (NFT), virtual o‘yin obyektlari, domen nomlari, akkauntlar va katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plami real iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan mustaqil aktivlar sifatida fuqarolik muomalasida faol ishtirok etmoqda. Ma’lumotlarning taqsimlangan reyestri (blokcheyn) texnologiyasining paydo bo‘lishi esa raqamli obyektlarning noyobligini, takrorlanmasligini va ular ustidan yakka tartibdagi faktik nazoratni ta’minlash imkonini berdi, bu esa ularni an’anaviy mulkiy ne’matlarga funksional jihatdan yaqinlashtirdi (Nakamoto, 2008).

Shu bilan birga, klassik fuqarolik huquqi doktrinasi va aksariyat davlatlarning amaldagi qonunchiligi mulk huquqi obyektlarini asosan moddiy ashyolar va an’anaviy mulkiy huquqlar atrofida qurgan. Natijada raqamli mulkning huquqiy maqomi masalasi zamonaviy sivilistikaning eng munozarali muammolaridan biriga aylandi: raqamli aktivlar ashyo hisoblanadimi, mulkiy huquq sifatida kvalifikatsiya qilinadimi yoki fuqarolik huquqlari obyektlarining mustaqil, yangi turini tashkil etadimi degan savollar hanuzgacha yagona yechimini topgani yo‘q. Bu holat sud amaliyotida raqamli aktivlarni himoya qilish, ularni meros tariqasida o‘tkazish, undiruvni qaratish, garovga qo‘yish va bankrotlik massasiga kiritish kabi amaliy masalalarda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ushbu global jarayonlardan chetda qolgani yo‘q. Mamlakatimizda 2018-yildan boshlab raqamli iqtisodiyot va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirishga qaratilgan izchil davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan kripto-aktivlar aylanmasi sohasining huquqiy asoslari yaratildi hamda kripto-aktiv ma’lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan, qiymatga ega mulkiy huquq sifatida normativ darajada mustahkamlandi (President of the Republic of Uzbekistan, 2018). Bundan tashqari, 2023-yilda qabul qilingan Konsti-

tutsiyaning yangi tahririda mulk huquqining daxlsizligi va himoyasi kafolatlari yanada kuchaytirildi, bu esa mulk tushunchasini zamonaviy raqamli voqelik nuqtayi nazaridan qayta idrok etishni taqozo etadi (Republic of Uzbekistan, 2023).

Biroq amaldagi milliy qonunchilikda raqamli mulkning fuqarolik-huquqiy rejimi tizimli tarzda belgilanmagan: Fuqarolik kodeksining fuqarolik huquqlari obyektlariga bag‘ishlangan normalari raqamli aktivlarni bevosita nazarda tutmaydi, kripto-aktivlar aylanmasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar esa asosan ommaviy-huquqiy (litsenziyalash, nazorat, soliq) xarakterga ega. Bunday sharoitda raqamli mulkni fuqarolik huquqi obyekti sifatida nazariy jihatdan asoslash, uning mezonlarini aniqlash va xorijiy tajriba asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi raqamli aktivlar bozorining jadal rivojlanishi hamda meros, undiruv va mulkiy nizolarni huquqiy hal etish uchun raqamli mulkning fuqarolik huquqi obyekti sifatidagi maqomini aniq belgilash zarurati bilan izohlanadi.

Mazkur muammoning ilmiy jihatdan o‘rganilganlik darajasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, raqamli aktivlarning huquqiy tabiati xorijiy adabiyotda J. Fairfield (2024), K. Odinet va Tosato (2026) kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. O‘zbekistonlik olimlardan S.S. Gulyamov va I.R. Rustambekovning (2024) raqamli huquq, kiberhuquq va raqamli aktivlar xavfsizligi masalalariga bag‘ishlangan, xalqaro ilmiy bazalarda indeksatsiya qilingan ishlari alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, raqamli mulkni aynan fuqarolik huquqlari obyekti sifatida kompleks tadqiq etish, uni milliy huquq tizimiga integratsiya qilish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Mazkur maqolada uchta asosiy savolga javob izlanadi: raqamli aktivni fuqarolik huquqi obyekti sifatida tan olish uchun qanday huquqiy mezonlar talab etiladi; raqamli aktivlar, raqamli mulk va raqamli huquq tushunchalari o‘rtasidagi farq nimada; milliy qonunchilikda ularning muomalasi va himoyasini ta’minlash uchun qanday normalar zarur? Qiyosiy-huquqiy metod xorijiy yondashuvlarni solishtirishda, formal-yuridik metod milliy qonunchilik mazmunini aniqlashda, tizimli metod raqamli aktivlarning fuqarolik huquqlari obyektlari tizimidagi o‘rnini belgilashda, tarixiy-huquqiy metod esa obyektlar doirasi kengayishini izohlashda qo‘llanildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi raqamli obyektlarning barchasiga yagona rejimni tatbiq etishda emas, balki ularni identifikatsiya qilinishi, nazorat qilinishi, iqtisodiy qiymati va muomalaga layoqatliligi mezonlari asosida tasniflash hamda Fuqarolik kodeksiga tegishli qo‘shimcha kiritish taklifini asoslashda namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism

“Raqamli mulk” tushunchasi huquqiy doktrinaga nisbatan yaqinda kirib kelgan bo‘lib, uning mazmuni hali to‘liq barqarorlashmagan. Keng ma’noda raqamli mulk deganda elektron shaklda mavjud bo‘lgan, iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan va muayyan shaxsga tegishliligi texnologik yoki huquqiy vositalar orqali ta’minlanadigan har qanday nomoddiy ne’mat tushuniladi. Tor ma’noda esa raqamli mulk deganda ko‘pincha ma’lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyasi asosida yaratilgan va muomalada bo‘lgan kripto-aktivlar – kriptovalyutalar va tokenlar nazarda tutiladi.

Tarixiy-huquqiy nuqtai nazardan qaraganda, fuqarolik huquqlari obyektlari doirasining kengayishi huquq taraqqiyotining doimiy qonuniyati hisoblanadi. Rim xususiy huquqidayoq ashyolar jismoniy va jismoniy bo‘lmagan turlarga ajratilgan bo‘lib, huquqlarning o‘zi ham muomala predmeti sifatida qaralgan. Keyinchalik sanoat inqilobi davrida qimmatli qog‘ozlar va pul mablag‘lari, XX asrda esa intellektual faoliyat natijalari, korxona, axborot kabi obyektlar huquq tizimiga bos-

qichma-bosqich integratsiya qilindi. Har bir bosqichda doktrina avvaliga yangi ne'matlarni mavjud kategoriyalarga "sig'dirishga" harakat qilgan, so'ngra ular uchun maxsus huquqiy rejimlar yaratgan. Raqamli mulk masalasida ham xuddi shu evolyutsion mantiq kuzatilmoqda: dastlab kripto-aktivlarni pul, valyuta boyligi yoki qimmatli qog'oz sifatida kvalifikatsiya qilishga urinishlar bo'ldi, biroq ularning texnologik o'ziga xosligi oxir-oqibat mustaqil huquqiy kategoriya sifatida e'tirof etilishini taqozo etdi.

Amerikalik huquqshunos J. Fairfield (2015) o'zining "BitProperty" nomli fundamental tadqiqotida blokcheyn texnologiyasi raqamli obyektlarga nisbatan birinchi marta haqiqiy "raqamli egalik" (digital possession) imkonini yaratganini, shu bois ularga an'anaviy mulk huquqi rejimini tatbiq etish uchun nazariy to'siqlar bartaraf etilganini asoslab bergan. Uning fikricha, raqamli aktivlar shartnoma huquqi konstruksiyalari orqali emas, balki aynan mulk huquqi kategoriyalari orqali tartibga solinishi lozim, chunki faqat mulkiy rejimgina egaga uchinchi shaxslarga nisbatan mutlaq himoya beradi.

Kontinental huquq doktrinasida esa masala boshqacharoq talqin qilinadi. Y. Suxanov raqamli aktivlarni an'anaviy ashyoviy huquq obyektlari qatoriga kiritishga shubha bilan qaraydi va ularni majburiyat huquqi hamda mulkiy huquqlarning maxsus turi sifatida kvalifikatsiya qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi, zero ashyoviy huquq obyektlari faqat moddiy predmetlar bo'lishi mumkin degan klassik pandekt ta'limotiga sodiq qoladi (Sukhanov, 2021). L. Vasilevskaya (2019) esa token va boshqa raqamli huquqlarning yuridik kvalifikatsiyasi muammosini tahlil qilar ekan, raqamli huquq mohiyatan mulkiy huquqning elektron shaklda qayd etilgan ko'rinishi ekanligini, biroq uning amalga oshirilishi va tasarruf etilishi faqat axborot tizimi doirasida mumkinligi bilan o'ziga xoslik kasb etishini ta'kidlaydi.

Ushbu munozarada muhim burilish nuqtasi sifatida UNIDROIT (Xususiy huquqni unifikatsiya qilish xalqaro instituti) tomonidan 2023-yilda qabul qilingan "Raqamli aktivlar va xususiy huquq prinsiplari"ni ko'rsatish mumkin. Mazkur hujjatda raqamli aktiv deganda "nazorat qilinishi mumkin bo'lgan elektron yozuv" tushunilishi belgilangan bo'lib, "nazorat" kategoriyasi moddiy ashyolarga nisbatan qo'llaniladigan "egalik" kategoriyasining funksional ekvivalenti sifatida taklif etilgan (UNIDROIT, 2023). Shu tariqa xalqaro darajada raqamli aktivlarning mulkiy huquq obyekti bo'la olishi e'tirof etilib, milliy huquq tizimlariga ularni o'z obyektlari tizimiga moslashtirish tavsiya qilindi.

Yuqoridagi doktrinal qarashlarni umumlashtirib, raqamli mulkning quyidagi asosiy belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, nomoddiylik – raqamli mulk jismoniy substansiyaga ega emas, u axborot tizimidagi elektron yozuv (kod) shaklida mavjud bo'ladi. Ikkinchidan, iqtisodiy qiymat – raqamli obyekt bozor munosabatlari ishtirokchilari tomonidan qiymatga ega ne'mat sifatida e'tirof etiladi va pulda baholanishi mumkin. Uchinchidan, nazorat qilinuvchanlik – texnologik vositalar (kriptografik kalitlar, autentifikatsiya mexanizmlari) yordamida muayyan shaxs obyekt ustidan boshqalarni istisno etuvchi faktik hukmronlikni amalga oshira oladi. To'rtinchidan, muomalaga layoqatlilik – raqamli obyekt bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tkazilishi (tasarruf etilishi) mumkin. Beshinchidan, identifikatsiya qilinuvchanlik – obyekt boshqa obyektlardan ajratib olinishi va individuallashtirilishi mumkin. Aynan ushbu belgilar yig'indisi raqamli obyektni huquq obyekti darajasiga ko'taradi.

Shunday qilib, raqamli mulkka quyidagicha ta'rif berish mumkin: raqamli mulk – bu elektron shaklda (shu jumladan, ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrida) mavjud bo'lgan, iqtisodiy qiymatga ega, muayyan shaxsning nazorati ostida turadigan hamda

fuqarolik muomalasida mustaqil ravishda ishtirok eta oladigan nomoddiy ne'matdir.

Bunda "raqamli aktiv" tushunchasi elektron muhitda mavjud bo'lgan va iqtisodiy yoki huquqiy ahamiyatga ega obyektlarning kengroq toifasini anglatadi; "raqamli mulk" esa shunday aktivga nisbatan shaxsda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan mulkiy manfaat yoki huquqiy maqomni ifodalaydi. "Raqamli huquq" atamasi esa qonunchilik yoki shartnoma asosida raqamli shaklda qayd etilgan muayyan huquqni, jumladan, talab qilish huquqini ham anglatishi mumkin. Shu sababli elektron shaklda mavjud har qanday ma'lumotni avtomatik ravishda mulk deb e'tirof etish to'g'ri emas: texnik nazorat imkoniyati huquqiy egalik yoki mutlaq huquq mavjudligini o'z-o'zidan isbotlamaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 81-moddasiga muvofiq, fuqarolik huquqlarining obyektlariga ashyolar, shu jumladan, pul va qimmatli qog'ozlar, boshqa mol-mulk, shuningdek, mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar, ixtirolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot va san'at asarlari hamda intellektual faoliyatning boshqa natijalari, nomoddiy ne'matlar kiradi (Republic of Uzbekistan, 1997). Ko'rinib turibdiki, mazkur ro'yxatda raqamli aktivlar bevosita tilga olinmagan. Biroq "boshqa mol-mulk" kategoriyasining ochiq xarakteri raqamli mulkni fuqarolik huquqlari obyektlari tizimiga doktrinal talqin yo'li bilan kiritish imkonini beradi.

Raqamli mulkning obyektlar tizimidagi o'rnini aniqlashda uch asosiy konsepsiyani farqlash lozim. Birinchi – "ashyoviy" konsepsiya tarafdorlari raqamli aktivlarga ashyo rejimini tatbiq etishni taklif qiladilar. Bunday yondashuvning afzalligi shundaki, ashyoviy huquq institutlari raqamli aktivlarga to'g'ridan to'g'ri qo'llanilishi mumkin bo'ladi. Biroq kontinental huquq an'anasida ashyo faqat moddiy predmet sifatida tushunilishi ushbu konsepsiyaning jiddiy nazariy to'sig'i hisoblanadi. Ikkinchi – "majburiyat-huquqiy" konsepsiya raqamli aktivlarni axborot tizimi operatoriga yoki emitentga nisbatan talab huquqi sifatida talqin etadi. Ammo bu yondashuv markazlashmagan tizimlarda qo'llanila olmaydi, chunki bunday tizimlarda majburiyatning aniq qarzdori mavjud emas. Uchinchi – "sui generis" konsepsiya raqamli aktivlarni obyektlarning mustaqil turi sifatida e'tirof etib, ularga nisbatan maxsus huquqiy rejim o'rnatishni nazarda tutadi.

Qiyosiy tahlil uchinchi konsepsiyaning xalqaro miqyosda ustuvorlik kasb etayotganini ko'rsatadi. Buyuk Britaniya Huquq komissiyasi 2023-yilda e'lon qilgan "Raqamli aktivlar" bo'yicha yakuniy hisobotida ingliz huquqidagi an'anaviy ikkilik tasnif raqamli aktivlarni qamrab olmasligini, shu bois shaxsiy mulkning "uchinchi kategoriyasi" e'tirof etilishi lozimligini asoslab berdi (UK Law Commission, 2023). Ushbu tavsiya asosida keyinchalik parlamentga raqamli aktivlarning mulk obyekti bo'la olishini mustahkamlovchi qonun loyihasi kiritildi.

Sud amaliyoti ham raqamli aktivlarni mulk sifatida e'tirof etish yo'lidan bormoqda. Angliya Oliy sudining AA v Persons Unknown ishida Bitcoin mulk (property) hisoblanishi va unga nisbatan sud tomonidan xatlov (proprietary injunction) qo'llanilishi mumkinligi e'tirof etildi (Wright & Schaffer-Goddard, 2020). Yangi Zelandiya Oliy sudi Ruscoe v Cryptopia ishida kripto-birja bankrotligi kontekstida kripto-aktivlar mulkning barcha klassik mezonlariga javob berishini va mijozlar foydasiga trast obyekti bo'la olishini qayd etdi (Ruscoe v. Cryptopia Ltd (in liq.), 2020). Singapur Xalqaro tijorat sudi esa B2C2 v Quoine ishida kriptovalyuta mulkiy ne'mat sifatida trast obyekti bo'lishi mumkinligini e'tirof etib, raqamli aktivlar bilan tuzilgan bitimlarga shartnoma huquqining umumiy prinsiplari to'liq tatbiq etilishini ko'rsatdi (B2C2 Ltd v. Quoine Pte Ltd, 2019).

Yuqoridagi ilmiy-nazariy qarashlar hamda xorijiy davlatlar tajribasi tahlilidan kelib chiqib, raqamli mulkni fuqarolik huquqi obyekti sifatida e'tirof etish uchun bir qator funda-

mental mezonlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Avvalo, raqamli obyekt axborot tizimi yoki taqsimlangan reyestrda mustaqil elektron yozuv sifatida mavjud bo‘lishi hamda boshqa yozuvlardan texnik va huquqiy jihatdan aniq identifikatsiya qilinishi lozim. Shu bilan birga, mazkur obyekt ustidan muayyan shaxsning eksklyuziv nazorati kriptografik yoki boshqa zamonaviy texnologik vositalar orqali ishonchli ta’minlangan bo‘lishi, ya’ni uchinchi shaxslarning ruxsatsiz foydalanishi yoki tasarruf etishi istisno etilishi zarur. Raqamli obyekt, shuningdek, mustaqil iqtisodiy qiymatga ega bo‘lishi, bozorda baholanishi va mulkiy manfaat keltiruvchi aktiv sifatida fuqarolik muomalasida ishtirok etish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, u bir shaxsdan boshqasiga o‘tkazilishi, begonalashtirilishi yoki boshqa fuqarolik-huquqiy bitimlarning predmeti bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Nihoyat, bunday obyektning fuqarolik muomalasida ishtirok etishi amaldagi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan bo‘lishi, ya’ni u muomaladan chiqarilgan yoki muomalasi cheklangan obyektlar toifasiga kirmasligi talab etiladi. Mazkur mezonlar raqamli mulkning fuqarolik-huquqiy tabiatini aniqlashda universal yuridik mezonlar sifatida e’tirof etilishi mumkin. Shunga ko‘ra, ushbu mezonlarning barchasiga javob beradigan har qanday raqamli obyekt fuqarolik huquqlari obyekti sifatida tan olinishi, unga nisbatan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari, shuningdek, fuqarolik-huquqiy himoya vositalari to‘liq tatbiq etilishi lozim. Bunday yondashuv fuqarolik huquqining an’anaviy mulkiy munosabatlarni tartibga solishga oid tamoyillarini raqamli iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish, yangi turdagi raqamli aktivlarning huquqiy maqomini aniq belgilash hamda ular ishtirokidagi fuqarolik muomalasining barqarorligi va huquqiy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamli aktivlarning huquqiy rejimi ularning texnologik shakligagina emas, balki mazmuni va qanday huquqni ifodalashiga ham bog‘liq. Masalan, kripto-aktiv mustaqil elektron yozuv va nazorat qilinadigan aktiv sifatida baholanishi mumkin; NFT esa tokenning o‘ziga bo‘lgan nazoratni tasdiqlashi mumkin, ammo u bilan bog‘langan asarga nisbatan mualliflik huquqi yoki boshqa intellektual huquqlarni avtomatik ravishda o‘tkazmaydi. Domen nomi, odatda, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi bilan munosabatlar va domendan foydalanish qoidalari bilan bog‘liq huquqiy mavqeni anglatadi. Akkaunt esa platforma shartlari, shaxsiy ma’lumotlar va foydalanish huquqlari bilan chegaralanishi mumkin. Shu bois NFT, domen nomi va akkauntni har bir holatda mustaqil mulk obyekti deb qabul qilishdan oldin ularning huquqiy mazmuni, uchinchi shaxslarga o‘tkazilishi va qonun bilan belgilangan cheklovlari alohida tekshirilishi lozim.

Xulosa

Tadqiqot natijalari raqamli aktivlarning ayrim turlari iqtisodiy qiymatga ega bo‘lishi, individuallashtirilishi, nazorat qilinishi va fuqarolik muomalasida ishtirok etishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq raqamli aktiv, raqamli mulk va raqamli huquq tushunchalarini bir-biriga tenglashtirish mumkin emas. Har bir obyektning huquqiy rejimi uning mazmuni, qaysi huquqni ifodalashi, uchinchi shaxslarga o‘tkazish imkoniyati va qonunchilikda belgilangan cheklovlaridan kelib chiqib aniqlanishi lozim. Xususan, kripto-aktiv, NFT, domen nomi va akkauntga nisbatan bir xil huquqiy rejimni avtomatik qo‘llash ularning huquqiy tabiatidagi farqlarni inobatga olmaslikka olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 81-moddasida raqamli aktivlar alohida ko‘rsatilmagani ularning fuqarolik huquqlari obyektlari tizimidagi o‘rnini aniqlashni qiyinlashtirishi mumkin. Shu munosabat bilan 81-moddani raqamli aktivlarni ham qamrab oluvchi qoida bilan to‘ldirish taklif etiladi. Taklif etilayotgan normativ matn quyidagicha ifodalanishi mumkin: “Fuqarolik huquqlarining obyektlariga qonunchilikda

belgilangan shartlar asosida fuqarolik muomalasida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan raqamli aktivlar ham kiradi. Raqamli aktivning huquqiy rejimi uning xususiyatlari, u bilan bog‘liq huquqlarning mazmuni hamda qonunchilikda belgilangan cheklovlar hisobga olingan holda belgilanadi”. Mazkur qoida raqamli aktivlarning barcha turlarini bir xil huquqiy toifaga kiritishni emas, balki ularning fuqarolik huquqlari obyekti bo‘la olishini qonun darajasida tan olish va keyingi maxsus tartibga solish uchun umumiy asos yaratishni nazarda tutadi.

Shuningdek, raqamli aktivlarga nisbatan huquqni amalga oshirish va himoya qilishning maxsus qoidalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Meros munosabatlarida aktiv ustidan nazoratni qonuniy vorisga o‘tkazish va unga kirish imkoniyatini ta’minlash; garov munosabatlarida aktivni aniq belgilash, uni saqlash hamda kreditor manfaatlarini himoya qilish; majburiy ijro jarayonida esa aktivni aniqlash, unga qonuniy asosda taqiq qo‘yish va realizatsiya qilish tartibini belgilash muhimdir. Bankrotlik va oilaviy munosabatlarda raqamli aktivning tegishli shaxsga mansubligi, uning qiymati va uchinchi shaxslar huquqlari ham alohida hisobga olinishi lozim. Bu masalalarning barchasini bitta umumiy norma bilan to‘liq hal etib bo‘lmaydi; ular Fuqarolik kodeksi va tegishli maxsus qonunchilikda muvofiqlashtirilgan tarzda tartibga solinishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, raqamli mulkni fuqarolik huquqi obyekti sifatida tan olish raqamli iqtisodiyotda mulkiy manfaatlarni himoya qilish va huquqiy aniqlikni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin. Buning uchun, bir tomondan, raqamli aktivlarni identifikatsiya qilish, nazorat qilish, iqtisodiy qiymat va muomalaga layoqatlilik mezonlarini hisobga olish, ikkinchi tomondan, har bir aktiv turining huquqiy xususiyatlarini farqlash zarur. UNIDROIT prinsiplari va xorijiy sud amaliyoti milliy huquqni takomillashtirishda qiyosiy manba bo‘la oladi, biroq ular O‘zbekiston qonunchiligi va huquqni qo‘llash amaliyotining xususiyatlarini hisobga olgan holda tatbiq etilishi lozim.

REFERENCES

B2C2 Ltd v. Quoine Pte Ltd (2019) SGHC(I) 3 (Singapore International Commercial Court Mar. 14, 2019). https://www.elitigation.sg/gdviewer/s/2019_SGHCI_3

Fairfield, J. A. T. (2015). BitProperty. *Southern California Law Review*, *88*(4), 805–874.

Fairfield, J. A. T. (2024). Property as the law of virtual things. *Digital Law Journal*, *4*(3), 16–39. https://www.digitallawjournal.org/jour/article/view/182

Gulyamov, S. S., & Rustambekov, I. R. (2024). *Safeguarding digital assets: Cybersecurity imperatives for Uzbekistan’s cryptocurrency exchange ecosystem*. TSUL, Department of Cyber Law. https://gulyamov.org/recent-scholarly-publications-by-professor-said-gulyamov/

Nakamoto, S. (2008). *Bitcoin: A peer-to-peer electronic cash system*. Bitcoin.org. https://bitcoin.org/bitcoin.pdf

Odinet, C. K., & Tosato, A. (2026). *Digital commercial law: Private law in the age of tokens, platforms, and automation*. Oxford University Press. https://www.andreatosato.com/essays/seeing-the-intangible/

President of the Republic of Uzbekistan. (2018, July 3). *On measures to develop the digital economy and the sphere of crypto-assets turnover in the Republic of Uzbekistan* (Resolution No. RP-3832). Lex.uz. https://lex.uz/docs/-3806053

Republic of Uzbekistan. (1997). *Civil Code of the Republic of Uzbekistan.* Lex.uz. https://lex.uz/docs/-111189

Republic of Uzbekistan. (2023, April 30). *Constitution of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/-6445145

Ruscoe v. Cryptopia Ltd (in liq.) (2020) NZHC 728 (N.Z. High Ct. Apr. 8, 2020). https://www.nzlii.org/cgi-bin/viewdoc/nz/cases/NZHC/2020/728.html

Sukhanov, E. A. (2021). O grazhdansko-pravovoy prirode tsifrovogo imushchestva [On the civil-law nature of digital property]. *Bulletin of Civil Law*, *21*(6), 7–29.

UK Law Commission. (2023). *Digital assets: Final report (Law Com No. 412)*. UK Government Publishing.

UNIDROIT. (2023). *UNIDROIT principles on digital assets and private law*. International Institute for the Unification of Private Law.

Vasilevskaya, L. Y. (2019). Token kak novyy obyekt grazhdanskikh prav: problemy yuridicheskoy kvalifikatsii tsifrovogo prava [Token as a new object of civil rights: Problems of legal qualification of digital law]. *Current Issues of Russian Law*, (5), 111–119.

Wright, L., & Schaffer-Goddard, J. (2020, January 28). AA v Persons Unknown: Unmasking the proprietary status of cryptoassets. *Society for Computers & Law.* https://www.scl.org/10799-aa-v-persons-unknown-unmasking-the-proprietary-status-of-cryptoassets/

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 5-SON

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence